

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.Q.Qayumova, X.M.Komilova

Turkiston Qum balig'i Gobio lepidolaemus (K.Kessler1872)ning morfometrik xususiyatlarining qiyosiy tahliliga oid 103

U.I.Obidjanov

Biologiya o'qitish metodikasidan laboratoriya ishlarini takomillashtirishning ayrim masalalari..... 108

E.X.Najmiddinov, M.A.Muxammadiyev

Baliqlarning gelmintoz kasalliklariga qarshi antigelmint preparatlarni qo'lash usullari 112

M.M.Mirzaxalilov

Shahrixonsoyda tarqalgan Kushakevich yalangbalig'ining (Iskandaria kuschakewitschi) ba'zi morfobiologik ko'rsatkichlari 115

N.B.Ikramov

Shimoliy Farg'ona kanali algoflora taksonlarining mavsumiy dinamikasi 119

GEOGRAFIYA**M.H.Otamirzayeva**

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari 126

O.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari 133

M.R.Atabayeva

O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursida "Ichki suvlari va suv boyliklari" mavzusini interfaol o'rganishda klaster usulidan foydalanishning ahamiyati 139

O.I.Abdug'aniev, T.D.Komilova

Tabiat xilma-xilligi: nazariy asoslari, yondashuvlar va o'rganish usullari 144

P.R.Qurbonov

O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy bosqichlari 150

ILMIY AXBOROT**Q.B.Baratov**

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari 158

A.N.Qosimov

O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmuni 166

J.V.Solijonov

Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkur rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 172

A.Aloxunov

Arxeologik tadqiqot usullari xususida 175

I.Aldashev

O'quv jarayoniga media ta'limning integratsiyasi 182

I.R.Asqarov, G.A.Mo'minova

Dalachoy tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash va ularning organizmga ta'siri 188

F.O'.Toshboltayev

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantirish modeli 194

A.N.Meliboyev

Inson oliy qadriyat tamoyili asosida jamiyatda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarining kelgusidagi vazifalari 199

I.A.Suvanov

Global o'zgarishlar jarayonida AQShning mafkuraviy taraqqiyot yo'li va uning o'ziga xosligi 205

G.R.Mamadaliyeva

Ingliz va o'zbek tillarida "foot/oyoq" kontseptining nominativ maydoni 211

M.O.Habibullaev

Korrupsiyani vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillari va unga qarshi kurashning mexanizmlari 219

F.T.Raximova, S.S.Usmanova

Minimal matnlarning kognitiv tahlili 222

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF LOGICAL THINKING DEVELOPMENT IN FUTURE EDUCATORS

Solijonov Jasurbek Valeriy o'g'li¹

¹Solijonov Jasurbek Valeriy o'g'li

— Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya

Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkur rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va rivojlantirishning pedagogik mazmuni, muloqot madaniyati kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lganligi bois ularda Mantiqiy tafakkurini rivojlanganlik darajasi mezoniga oid bilim va ko'nikmalarini muntazam takomillashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье актуальной задачей является педагогическое значение развития логического мышления у будущих педагогов через междисциплинарное сотрудничество, педагогическое содержание развития, формирование компетенции культуры общения.

Abstract

In this article, the pedagogical importance of developing logical thinking in future pedagogues through interdisciplinary cooperation, the pedagogical content of development, and the development of communication culture competence are an urgent task.

Kalit so'zlar: Mantiqiy fikrlash, pedagogik-psixologik, globalashuv sharoit, madaniyatlararo munosabatlar, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, aktual mantiqiy tafakkurini, ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: педагогико-психологические, условия глобализации, межкультурные отношения, социальная необходимость, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, образование и воспитание, научно-методические.

Key words: pedagogical-psychological, globalization conditions, intercultural relations, social necessity, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, education and upbringing, scientific-methodical.

KIRISH

Dunyoning turli mamlakatlarida mazkur masalani tadqiq etishga, mantiqiy tafakkuri rivojlangan bo'lajak pedagoglarni tanlash, ularni rivojlantirishga doir o'ziga xos tajriba to'planganligini alohida qayd etib o'tish zarur. Masalan XX asr boshlarida Amerikada chop etilgan pedagogik-psixologik adabiyotlarda odatdagi tarbiyalovchilardan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladigan bolalar turli nomlar bilan atalgan. Psixologiya fanlari doktori G.Uilli yuksak qobiliyatlarga ega pedagoglar uchun "mantiqiy tafakkuri rivojlangan bo'lajak pedagoglar" atamasini qo'llashni taklif etgan. Adabiyotlar tahlili Amerikada mantiqiy tafakkuri rivojlangan bo'lajak pedagoglarni yuqori intellekt va a'lo darajada o'zlashtiruvchilar deb hisoblashganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mantiqiy tafakkuri rivojlangan bo'lajak pedagoglarning ta'limning eng yuqori darajasida shug'ullanish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. AQSHda mantiqiy tafakkuri rivojlangan bo'lajak pedagoglarga ta'lim-tarbiya berishda turli-tuman shakl va metodlardan keng foydalaniladi. Jumladan: "magnitli maktablar", "hurmat sinflari", "darajalanmaydigan sinflar", "aralash layoqatli" guruhlarda ta'lim berish kabilar. Mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda axborot texnologiyalarini qo'llash alohida o'rin egallaydi. Chunki o'quvchilarning kompyuterda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ularning mayllarini oshirib, mustaqil bilim olish va bilish faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi [1].

AQSHda mantiqiy tafakkuri rivojlangan bo'lajak pedagoglarga ta'lim berishiga yo'naltirilgan turli strategiyalardan faol tarzda foydalaniladi. Shuning uchun ham ushbu yo'nalishda maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilgan. Shunday strategiyalar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: jadallashtiruvchi (boyituvchi (tanlab olingan o'quv predmeti doirasida imkon qadar jadal yuqori darajadagi bilish faoliyatiga intilish, an'anaviy o'quv kurslarida qo'shimcha bilim olish orqali o'rganilayotgan sohaga oid bilimlarni kengaytirish); fanlararo ta'lim berish (o'rganish uchun tanlangan mavzu yoki muammoning global xarakter kasb etishi, o'quv materiali mazmunining yuqori darajada boyitilganligi) kabilar.

Germaniyada mantiqiy tafakkuri rivojlangan bo'lajak pedagoglar uchun alohida ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlari tashkil etishga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Berlindagi "Anna-Lindh-Schulye"da 80 nafar "Yevropa iqtisodining kelajagi" tahsil olishadi. 1988 yilda Germaniyada mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar uchun "Nemis maktab akademiyasi" (Deutsche Schüler Akademie) yozgi dasturi ishlab chiqilgan. Har yili mazkur dasturga Germaniyaning turli yerlaridan 90 nafar yuqori mantiqiy tafakkuri rivojlangan bo'lajak pedagoglar jalb etiladi. 16 kun davomida yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida ular bittadan oltitagacha akademik fanlar bilan shug'ullanishadi. Masalan, 2009-yilda mazkur dastur doirasida bo'lajak pedagoglarga "Giperbolik geometriya", "Molekulyar genetika", "Biologiya va yuqumli kasalliklar sotsiologiyasi", "Nevrologiya", "Jamiyatda avlodlar o'zaro munosabatlari muammosi", "Kinofilmlarda musiqa" kabi o'quv kurslari taklif etilgan. Akademiyaning bosh maqsadi pedagoglarning qobiliyatini yanada rivojlantirish uchun intellektual atmeosferani yaratish hamda yuqori intellekt va motivatsiyaga ega tengdoshlari bilan o'zaro muloqotni tashkil etishdan iborat.

Britaniyalik mutaxassislarning fikricha, "ijod (kreativlik) – mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning eng muhim unsuri hisoblanadi va mantiqiy tafakkuri rivojlanganlikning barcha turlari ijodiy komponentdan alohida qaralishi mumkin emas" [105]. Angliya maktablarida ta'limni tabaqalashtirishning ikkita – ichki va tashqi turi mavjud. Ular o'zaro uyg'unlikda o'quv jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi [2]. Tashqi tabaqalashtirish o'quv jarayonini tashkil etishning xilma-xil maxsus shakllarida o'z aksini topadi: test va suhbat asosida qobiliyat darajasi bo'yicha bo'lajak pedagoglarni potoklarga taqsimlash; ta'limning ma'lum bir bosqichida bo'lajak pedagoglarni o'quv fanlariga qobiliyatiga ko'ra guruhlariga taqsimlash; "aralash" qobiliyatli guruhlarda o'qitish va h.k. Ichki tabaqalashtirish bo'lajak pedagoglarning bilish faoliyati usullariga muvofiq alohida fanlar bo'yicha vaqtinchalik guruhlariga birlashishida aks etadi. Ichki va tashqi tabaqalashtirishni amalga oshirishga doir tahlil asosida mazkur jarayon bo'lajak pedagoglarning bilish faolligini oshirish, o'zaro bir-birini nazorat qilish va mas'uliyatni anglash, hamkorlikda o'qitish elementlarini qo'llash asosida mustaqil ta'limning variativligini ta'minlash imkonini berishi haqidagi xulosaga kelindi.


Rossiyada 2000-yilda mazkur davlat hukumati tomonidan "Mantiqiy tafakkuri rivojlangan bolalar" dasturi qabul qilingan. Mazkur dasturning asosiy maqsadi mantiqiy tafakkuri rivojlangan, talantli bo'lajak pedagoglarni aniqlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini vujudga keltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda mamlakatning intellektual, ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mantiqiy tafakkuri rivojlangan bolalarni tanlov asosida aniqlash mexanizmlarini vujudga keltirish nazarda tutilgan.

NATIJALAR

Bizning tadqiqotimizda Bo'lajak pedagoglar mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni diagnostika qilish tamoyillarini metodologik asoslash quyidagilarga tayanadi:

1) mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni yuqori darajadagi yaxlit psixologik tizimni o'zida aks ettiruvchi shaxs sifati tarzida ko'rib chiqish;

2) shaxsni rivojlantiruvchi sifati tarzida uni mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning dinamik nazariyasi bilan bog'liqligini asoslash (1.2-rasmga qarang).



1.2-rasm. Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni tashxis etishga doir eng muhim yondashuvlar

MUHOKAMA

Mazkur asoslarga tayangan holda, Bo'lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni tashxis etishga doir quyidagi eng muhim yondashuvlarni ajratib oldik:

1) shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Tekshiruv rivojlanish davrlari, intellekt va affektning o'zaro aloqadorligi va o'zaro harakati, o'z-o'zini anglashning o'ziga xosligi, emosional-irodaviy va kommunikativ sohalarining rivojlanish darajalari bilan bog'liqlikda shaxs rivoji uchun xizmat qiladigan o'zaro aloqador sifatlarining yaxlit tizimini o'rganishga yo'naltirilgan;

2) dinamik yondashuv (o'rganishning uzoq muddat davom etishi, sinaluvchilarni turli vaziyatlardagi xulq-atvorini o'rganish uchun vaqti-vaqti bilan kuzatishlarga murojaat qilish, uning rivojlanishi dinamikasini o'rganish, psixologik to'siqlarni va uni bartaraf etish vositalarini aniqlash). Dinamik yondashuv asosida diagnostik tanlovdan diagnostik rivojlantirishga o'tish paraligmasini almashtirish bilan shartlangan mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning dinamik nazariyasi yotadi;

3) tekshiruv natijasi sifatida nafaqat insonning umumiy va psixik rivojlanish darajasi, umumiy va maxsus qobiliyatlarning rivojlanishi, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish darajasini aniqlash, balki uning potensial imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan shaxsiy rivojlanishini prognoz qilish masalasini tadqiq etishga asoslangan prognostik yondashuv.

Bo'lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga doir ilg'or xorijiy tajribalar asosida respublikamizda ham mustaqillik yillarida qator ishlar amalga oshirildi:

Birinchidan, respublikamizda ixtisoslashtirilgan Davlat ta'lim muassasalari tashkil etilgan bo'lib, bo'lajak pedagoglar o'zlarining imkoniyati va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, fan yo'nalishi bo'yicha chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ta'lim olish imkoniyatiga egadirlar;

Ikkinchidan, respublikamizda Yosh Pedagoglar markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, madaniy-estetik (tasviriy san'at – xalq amaliy san'ati – dizayn – musiqa ta'limi – teatr san'ati – pazandachilik va qandolatchilik); texnik ijodiyot (boshlang'ich texnik modellashtirish va konstruksiyalash – avtomatika va elektronika – texnik vositalar va kompyuter texnologiyalari); o'lkashunoslik va ekologiya (ekologiya va salomatlik – o'simlikshunoslik (flora) – hayvonotshunoslik (fauna) – sayyohlik – o'lkashunoslik) yo'nalishlarida to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan;

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy sharoitda pedagogika fani oldida turgan asosiy vazifa sifatida mantiqiy tafakkuri rivojlangan bo'lajak pedagoglarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Брюшинкин В.Н. Практический курс логики для гуманитариев. Учебное пособие. - М.: Новая школа, 1996. - 320 с.
2. Кузнецова Н.В. Дидактические условия обучения учащихся основам теоретического обобщения: Дисс. ... канд. пед. наук. - Липецк, 2000. - 170 с.
3. Кучугурова Н.Д. Контроль учебно-познавательной деятельности обучающихся (технология формирования умения). - Ставрополь: Изд-во СГУ, 2001. - 168 с.
4. Йўлдошев Ж.Ф. Таълим янгиланиш йўлида. – Т.: Ўқитувчи, 2000. – 207 б.